

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI SAFIDA MUDDATLI HARBIY
XIZMATNI O‘TAYOTGAN HARBIY XIZMATCHILARNING MA‘NAVIY-MA‘RIFIY,
MADANIY SAVIYASI VA BILIMLARINI MUNTAZAM OSHIRIB BORISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha ishchi guruhining namunaviy tarkibi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha ishchi guruhlar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi, joylardagi harbiy qismlar, oliy harbiy ta‘lim muassasalari, serjantlar tayyorlash maktablari bilan birgalikda bir oy muddatda:

harbiy qismlarda harbiy xizmatchilar, shu jumladan chegarachilarning, (keyingi o‘rinlarda harbiy xizmatchilar deb ataladi) oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun har yili may-dekabr oylarida jami o‘quv yuklamasi 190 soatdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar (keyingi o‘rinlarda mashg‘ulotlar deb ataladi) o‘tkazish dasturini (har bir fandan 50 soatdan oshmagan tarzda) ishlab chiqsin;

har bir harbiy qismda tashkil etiladigan mashg‘ulotlar bo‘yicha 5 ta fandan ko‘p bo‘lmagan fan yo‘nalishlarini aniqlasin;

har bir harbiy qismga unga yaqin joylashgan oliy, o‘rta-maxsus va kasb hunar, o‘rta ta‘lim muassasasini biriktirishni ta‘minlasin hamda harbiy qismda shaxsiy tarkib soni va o‘quv guruhlari tarkibidan kelib chiqqan holda mazkur ta‘lim muassasalaridan mashg‘ulot o‘tkazuvchi o‘qituvchilarni tayinlasin;

ta‘lim muassasalarining axborot-resurs markazlari imkoniyatlaridan foydalanish uchun harbiy qism kutubxonalarini ushbu ta‘lim muassasalarining axborot-resurs markazlari tarmoqlariga ulanishi va axborot olish imkoniyatidan samarali foydalanishi bo‘yicha choralar ko‘rsin;

harbiy qismlarga biriktirilgan ta‘lim muassasalarining axborot resurs markazlari imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida aholi punktidan 50 kilometrdan uzoqda joylashgan harbiy qismlar kutubxonalarida elektron bazalar (elektron kutubxonalar)ni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

mashg‘ulotlar o‘tkazgan o‘qituvchilarga ularning o‘quv yuklamasiga ko‘ra tegishli ta‘lim muassasasining rahbarlari tomonidan umumta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan lavozim maoshining 50 foizi miqdorigacha shaxsiy ustamalar belgilanishi nazarda tutiladi;

mashg‘ulotlar uchun tayinlangan o‘qituvchilarning harbiy qismlar hududiga kelib-ketishi tegishli harbiy qism tomonidan ajratiladigan transport vositalari orqali amalga oshiriladi;

harbiy qismda hamda aholi punktidan 50 kilometrdan uzoqda joylashgan harbiy qismlarda masofaviy o‘qitish shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta

maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tegishli fanlar bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar asosida tayyorlangan audio va videoleksiyalar orqali tashkillashtiriladi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi ikki oy muddatda harbiy xizmatchilarning bilimlarini oshirish va mustahkamlash, mashg'ulotlar o'tkazish uchun harbiy qism kutubxonalarini o'quv adabiyotlari va elektron shakldagi qo'llanmalar (audio va videoleksiyalar) bilan ta'minlash choralarini ko'rsinlar.

5. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda harbiy qismlarda fan, ta'lim, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarning taniqli vakillari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish dasturini ishlab chiqsin va mazkur dastur asosida muntazam tadbirlar o'tkazib borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri A.A. Azizov, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri I.U. Madjidov, Xalq ta'limi vaziri U.I. Inoyatov zimmasiga hamda Vazirlar Mahkamasining Ta'lim, ilm-fan va yoshlar siyosati masalalari axborot-tahlil departamentiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017-yil 11-oktabr,
812-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-oktabrdagi 812-son qaroriga
1-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish bo'yicha

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

T/r	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
------------	-----------------------	----------------------------------	---------------------	--------------------------

1.	<p>Harbiy qismlarda muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, shu jumladan chegarachilarning (keyingi o'rinlarda harbiy xizmatchilar deb ataladi) oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlikko'rishlari uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlar bo'yicha fan yo'nalishlarini aniqlash (har bir harbiy qismda 5 ta fandan ko'p bo'lmagan tarzda).</p>	<p>1. Harbiy qismlarda yakka tartibda suhbatlar o'tkazish hamda harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishlari uchun tashkil etiladigan mashg'ulotlar bo'yicha fan yo'nalishlarini aniqlash (har bir harbiy qismda 5 ta fandan ko'p bo'lmagan tarzda).</p> <p>2. Harbiy xizmatchilar bilan suhbat davomida aniqlangan ma'lumotlarni umumlashtirish hamda ularni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalariga yetkazish.</p>	<p>Har yili 1-aprelgacha</p> <p>Har yili 10-aprelgacha</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari, harbiy qismlar</p>
----	---	---	--	--

2.	<p>Harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishlari uchun may-dekabr oylarida jami 190 soatli mashg'ulotlar o'tkazish dasturini ishlab chiqish (har bir fandan 50 soatdan oshmagan tarzda).</p>	<p>1. Harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishlari uchun qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha fan yo'nalishlarini (har bir harbiy qismda 4-5 ta fan hamda 50 soatli dars hajmidan ko'p bo'lmagan tarzda) aniqlash.</p> <p>2. Har bir harbiy qismga yaqin joylashgan ta'lim muassasasini biriktirish hamda har bir fandan mashg'ulot o'tkazuvchi ta'lim muassasalari o'qituvchilarini tayinlash.</p>	<p>Har yili 10- aprelgacha</p> <p>Har yili 20- aprelgacha</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari, harbiy qismlar</p>
3.	<p>Harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishlari uchun mashg'ulotlar o'tkazish reja-jadvalini tuzish.</p>	<p>1. Har bir fandan mashg'ulotlar o'tkazish kunlari va vaqtlarini aniqlashtirish.</p> <p>2. Harbiy qismlarda mashg'ulotlar o'tkazilishini tashkil etish bo'yicha mas'ul shaxslarni tayinlash.</p> <p>3. Har bir harbiy qismda mashg'ulotlar o'tkazish jadvalini tuzish va uni umumlashtirish uchun hududiy O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim boshqarmalariga yetkazish.</p>	<p>Har yili 10- aprelgacha</p> <p>Har yili 20- aprelgacha</p> <p>Har yili 20- aprelgacha</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari</p>

4.	<p>Harbiy xizmatchilarning bilimlarini oshirish, fanlardan bilimlarini mustahkamlash hamda seminar mashg'ulotlarini o'tkazish uchun harbiy qismlar kutubxonalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash.</p>	<p>1. Mashg'ulotlar o'tkazilishi bo'yicha harbiy xizmatchilarga daftar va o'quv qurollarini yetkazib berish.</p> <p>2. Harbiy qismlarga fanlardan mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'quv adabiyotlari va darsliklar sonini aniqlash.</p> <p>3. Fanlardan mashg'ulotlar o'tkazish uchun o'quv adabiyotlari va darsliklar soni bo'yicha buyurtma berish.</p>	<p>Har yili 1-aprelgacha</p>	<p>Harbiy qismlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari</p>
5.	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari hamda harbiy qismlar o'rtasida fanlardan mashg'ulotlar o'tkazilishi bo'yicha shartnomalar tuzish.</p>	<p>1. Har bir harbiy qismga mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim bo'lgan guruhlar (20 — 100 nafar tinglovchilar) va o'qituvchilar soni ko'rsatilgan buyurtmalar tayyorlash.</p> <p>2. Mashg'ulotlar o'tkazilishi bo'yicha o'quv ko'rgazma vositalari, prezentatsiya va adabiyotlarni tayyorlash.</p> <p>3. O'qituvchilarni mashg'ulotlar joyiga kelib-ketishi uchun ajratiladigan avtotransport haqida ma'lumotlar tayyorlash va mas'ullarga yetkazish.</p>	<p>Har yili 20- aprelgacha</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari, harbiy qismlar</p>

6.	<p>Ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari imkoniyatlaridan bevosita foydalanish uchun harbiy qism kutubxonalarini ta'lim muassasalari tarmoqlariga ulash va axborot olish imkoniyatini yaratish.</p>	<p>1. Harbiy qism kutubxonalarini ta'lim muassasasi tarmoqlariga ulash va axborot olish imkoniyatini yaratish bo'yicha hamkorlikdagi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Axborot resurs markazlari imkoniyatlaridan bevosita foydalanish uchun harbiy qism kutubxonalarini ta'lim muassasasi tarmoqlariga ulash.</p>	1-oktabrga qadar	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hududiy boshqarmalari, harbiy qismlar</p>
7.	<p>Harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishlari uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlar yakunida yo'nalishlar bo'yicha tanlovlar tashkil etish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rishlari uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlar yakunida yo'nalishlar bo'yicha tanlov o'tkazish nizomini ishlab chiqish. 2. Mashg'ulotlar yakunida yo'nalishlar bo'yicha o'tkaziladigan tanlov nizomini qo'shma qaror bilan tasdiqlash.</p>	1-noyabrga qadar	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Mudofaa vazirligi</p>

8.	<p>Harbiy xizmatchilarni oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi uchun beriladigan tavsiyanoma topshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi uchun beriladigan tavsiyanoma topshirish nizomini qayta ko'rib chiqish va qo'shimchalar kiritish uchun ishchi guruh tuzish.</p> <p>2. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi uchun beriladigan tavsiyanomani topshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.</p>	2017-yil 20- noyabrgacha	<p>O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Davlat test markazi</p>
9.	<p>Harbiy qismlarda fan, ta'lim, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarining taniqli vakillari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish tizimi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ushbu tadbirlarning o'tkazib borilishini ta'minlash.</p>	<p>1. Harbiy qismlarda tadbirlar o'tkazish rejasini ishlab chiqish hamda uni Jamoatchilik kengashining mintaqaviy bo'linma raisiga yetkazish.</p> <p>2. Rejalashtirilgan tadbirlarning Jamoatchilik kengashining mintaqaviy bo'linmalari orqali tizimli ravishda amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	Har chorakda	<p>O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibidagi mintaqaviy bo'linma raislari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman (shahar) bo'linmalari</p>
10.	<p>Harbiy xizmatchilarni hamda ularning oila a'zolarini madaniy maskanlarga, tarixiy joylarga sayohatlarini tashkillashtirish.</p>	<p>1. Tarixiy va madaniy maskanlarga sayohatlar uyushtirish rejasini tuzish.</p> <p>2. Jamoatchilik kengashining mintaqaviy bo'linmasiga sayohatlar rejasini yetkazish hamda uni yuqori saviyada amalga oshirilishini ta'minlash.</p>	Rejaga asosan	<p>Harbiy qismlar, O'zbekiston yoshlar ittifoqining hududiy bo'limlari</p>

11.	<p>Joylarda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyatini harbiy xizmatchilarga to'laonli tushuntirish, harbiy xizmatchilarni ushbu jarayonlarga keng jalb etish maqsadida "Vatan kelajagi sening qo'lingda!" shiori ostida "Qo'mondonlik va yoshlar" uchrashuvlarini tashkillashtirish.</p>	<p>1. Harbiy qismlarda qo'mondonlik ishtirokida uchrashuvlar tashkillashtirish rejasini ishlab chiqish va harbiy xizmatchilarga yetkazish.</p> <p>2. Harbiy xizmatchilarni qiziqtirayotgan masalalar bo'yicha uchrashuv rejasini ishlab chiqish va uni qo'mondonlikka yetkazish.</p> <p>3. Uchrashuvlarga davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, Jamoatchilik kengashining mintaqaviy bo'linma a'zolarini taklif qilish.</p>	Har chorakda	Harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, garnizonlar, harbiy qismlar
12.	<p>Harbiy xizmatchilarning oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi uchun chuqur bilimga ega bo'lishi, shuningdek kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida qismlarda "Men sevib o'qigan kitob" ko'rik-tanlovini o'tkazish.</p>	<p>1. "Men sevib o'qigan kitob" ko'rik-tanlovi nizomini ishlab chiqish va uni qo'shma qaror bilan tasdiqlash.</p> <p>2. Harbiy qismlarda tanlovni tashkil qilish bo'yicha tashkiliy va ishchi guruhlarni tuzish hamda bosqichma-bosqich o'tkazilishini ta'minlash.</p>	2018-yil I chorak	O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, harbiy qismlar

13.	Harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro hurmat, izzat, e'tibor, g'amxo'rlik, yordam kabi xislatlarni mustahkamlash maqsadida harbiy qismlarda har oyda bir marotaba "Ma'naviyat kuni"ni o'tkazish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. "Ma'naviyat kuni" rejasini ishlab chiqish. 2. Tadbirlarni sifatli va mazmunli o'tkazish maqsadida hududiy Ma'naviyat va ma'rifat markazi yordamida mutaxassislarni taklif qilish. 3. Mavzuga oid hujjatli filmni tanlash va uning muhokamasi o'tkazilishini ta'minlash. 	Har oyning to'rtinchi chorshanba kuni	Harbiy qismlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Ma'naviyat va ma'rifat markazi
14.	Harbiy qismlarda harbiy xizmatchilardan tashkil topgan "Zakovat", "Bilimdon" kabi intellektual klublarini tashkil etish hamda uni bosqichma-bosqich o'tkazib borilishini tashkil etish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Harbiy qismlarda harbiy xizmatchilardan tashkil topgan "Zakovat", "Bilimdon" intellektual klublarini tashkil etish. 2. Bosqichma-bosqich intellektual o'yinlar o'tkazib borilishini tashkil etish. 3. Tanlovlarning o'tkazilish jarayoniga davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarini taklif etish. 	O'quv yili davomida	Harbiy qismlar, Jamoatchilik kengashining mintaqaviy bo'linmasi
15.	Iste'dodli va qobiliyatli harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonlama amaliy yordam ko'rsatish, turli tanlovlarda ishktirok etishini ta'minlash hamda rag'batlantirish, davlat mukofoti bilan taqdirlash bo'yicha yuqori qo'mondonlikka tavsiyalar kiritib borish.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Iste'dodli va qobiliyatli harbiy xizmatchilarning ro'yxatini shakllantirish va ularning amalga oshirgan ishlari monitoringini olib borish. 2. Iste'dodli harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yuqori qo'mondonlikka tavsiya kiritish. 	Har chorakda	Harbiy qismlar, O'zbekiston yoshlar ittifoqi va uning hududiy bo'limlari

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismlarda harbiy xizmatchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy saviyasi va bilimlarini muntazam oshirib borish ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha namunaviy ishchi guruh

TARKIBI

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, ishchi guruh raisi.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi boshqarmasi boshliqlari, ishchi guruh raisi o‘rinbosari.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta‘limi vaziri, viloyatlar xalq ta‘limi boshqarmalari va Toshkent shahar Xalq ta‘limi bosh boshqarmasi boshliqlari.

4. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limi rahbarlari.

5. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘limlari raislari.

6. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining mintaqaviy bo‘linmasi raislari.

7. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi harbiy garnizon boshliqlarining shaxsiy tarkib bilan ishlash bo‘yicha o‘rinbosarlari.

8. Chegara qo‘shinlari mintaqaviy shtab boshlig‘ining kadrlar va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari.

Izoh. Ishchi guruh a‘zolari boshqa ishga o‘tgan holda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

(Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 13.10.2017-y., 09/17/812/0098-son)